



"ASAKATEKSTIL" MCHJning EKOLOGIK VA IJTIMOIIY SIYOSATI

1. UMUMIY QOIDALAR

1.1 "ASAKA TEKSTIL" mas'uliyati cheklangan jamiyati (bundan keyin – Jamiyat) ekologik va ijtimoiy boshqaruvni umumiy menejmentning muhim qismi sifatida tan oladi. Barqaror rivojlanish maqsadida va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi hamda to'qimachilik sanoatining eng yaxshi tarmoq tajribalariga muvofiq ravishda ekologik va ijtimoiy boshqaruvni tashkil etish uchun Jamiyat ushbu Ekologik va ijtimoiy siyosatni (bundan keyin – Siyosat) ishlab chiqdi va tasdiqladi.

1.2 Jamiyat o'z faoliyatida ekologik va ijtimoiy mas'uliyat yondashuvlarini qo'llashga, o'z faoliyatining salbiy ekologik va ijtimoiy xavf-xatarlar, ta'sirlar va ularning oqibatlarini oldini olishga yoki ularni yumshatishga intiladi. Jamiyat o'zining ekologik va ijtimoiy boshqaruvini yaxshilashga doimo harakat qiladi.

1.3 Jamiyat O'zbekiston Respublikasining ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi, mehnat munosabatlari, mehnat muhofazasi va ijtimoiy jihatlar sohasidagi qonunchilik talablarini bajarishga, shuningdek ushbu sohada ilg'or tajribalarni qo'llashga sodiqdir.

1.4 "ASAKA TEKSTIL" MCHJ ning ushbu Ekologik va ijtimoiy siyosati (bundan keyin – Siyosat) moliyaviy samaradorlik bilan bir qatorda atrof-muhit ekologik va ijtimoiy muhitga zarar yetkazmaydigan va imkon qadar mavjudlik hududining ijtimoiy rivojlanishiga xizmat qiladigan ishlab chiqarish faoliyati orqali Jamiyatning uzoq muddatli istiqbolda barqaror rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan.

1.5 Ushbu Siyosat butun Jamiyatga tarqaladi, ichki me'yoriy hujjat hisoblanadi, davriy ravishda yangilanishi va Jamiyat rahbariyati tomonidan tasdiqlanishi lozim.

1.6 Siyosat manfaatdor tomonlar tomonidan tanishish uchun ochiq bo'lishi kerak.

2. RAHBAR TAMOIYILLAR

2.1 Jamiyat O'zbekiston Respublikasi qonunchiligini, umume'tirof etilgan axloqiy va ma'naviy me'yorlarni bevosita yoki bilvosita buzadigan faoliyat turlari bilan shug'ullanmaydi.

2.2 Jamiyat biologik xilma-xillikni saqlash va himoya qilishni qo'llab-quvvatlaydi, O'zbekiston Respublikasida amal qilayotgan qimmatli daraxt turlarini kesishga moratoriyni qat'iy ravishda saqlaydi va Jamiyat joylashgan rayon xududini ko'kalamzorlashtirish ishlarida ishtirok etadi.

2.3 Jamiyat atrof-muhitni saqlashga, salbiy ta'sirlarni oldini olishga va minimallashtirishga intiladi.

2.4 Jamiyat tabiiy resurslarni oqilona foydalanadi va ularga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'ladi.

2.5 Jamiyat resurslar tejashni, jumladan energiya tejashni rivojlantirishga, elektr energiyasi, yoqilg'i va boshqa moddiy resurslarni tejash, texnika, xom ashyo, inson va boshqa resurslarni samarali ishlatish amaliyotlarini joriy etishga intiladi.

2.6 Jamiyat mahalliy aholining yashash sharoitlari, tirikchilik vositalari va yer egaligiga salbiy ta'sir ko'rsatishdan qochishga intiladi va shu bilan birga Jamiyat xodimlari va yaqin atrof aholisining turmush sifatini oshirish uchun sa'y-harakat qiladi.

2.7 Jamiyat o'z faoliyatida gender tengligi tamoyilini hisobga oladi.

2.8 Jamiyat xodimlarning qadr-qimmatini hurmat qilishni ta'minlaydi, ish joyida zo'ravonlik, ta'qib yoki suiiste'molga yo'l qo'ymaydi.

2.9 Jamiyat o'z xodimlarining sog'lig'i va xavfsizligini ta'minlash va yaxshilashga intiladi. Buning uchun Jamiyat xavfsizlik texnikasi va mehnat muhofazasi qoidalarini o'rganish va rioya qilishni ta'minlaydi.

2.10 Jamiyat o'z faoliyatida majburiy mehnat va bolalar mehnatining taqiqlangan shakllarini, mehnat va kasb sohasida kamsitishni istisno etadi va mehnat sohasida ijtimoiy sheriklik rivojlantiradi.

2.11 Jamiyat O'zbekiston Respublikasining mehnat hamda kasaba uyushmalari to'g'risidagi qonunchiligiga muvofiq ravishda xodimlarning mehnat huquqlarini ta'minlaydi.

2.12 Jamiyat yetkazib beruvchi va pudratchilar tomonidan ekologik va ijtimoiy qonunchilik buzilishiga yo'l qo'ymaslik uchun o'z yetkazib berish zanjirini nazorat qilishga intiladi. Buning uchun Jamiyat yetkazib berish zanjirini boshqarish siyosatini ishlab chiqadi, tasdiqlaydi va amalga oshiradi.

2.13 Raxbar tamoyillarni amalga oshirish uchun Jamiyat ekologik va ijtimoiy xavflar va ta'sirlarni aniqlash va boshqarish bo'yicha zarur tartib-taomillarni joriy etadi va rivojlantiradi.

2.14 Jamiyat ushbu Siyosatni amalga oshirish uchun zarur tashkiliy tuzilma, tartib-taomillar yaratadi va mas'ul kadrlarning malakasini ta'minlaydi.

3. EKOLOGIK VA IJTIMOIIY SIYOSATNI AMALGA OSHIRISH

3.1 Jamiyat rahbariyat buyrug'i bilan ekologiya va atrof-muhit muhofazasi masalalarini boshqarish funktsiyalarini bajarish uchun mas'ul xodimlarni tayinlaydi, jumladan atrof-muhitga ta'sirni baholash va davlat ekologik ekspertizasi sohasidagi qonunchilik talablarini bajarish, ekologik ta'sirlarni me'yorlashtirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, biologik xilma-xillikni muhofaza qilish, atmosfera havosini muhofaza qilish, suv resurslari, suvdan foydalanish, oqova suvlarni boshqarish, chiqindi hosil qilish va joylashtirish, tabiatni muhofaza qilish

tadbirlarini amalga oshirish, atrof-muhitni ifloslantirish uchun kompensatsiya to'lovlari, ekologik sertifikatlashtirish va boshqalar.

3.2 Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi uchun mas'ul xodimlar tegishli bilim va malakalarga ega bo'lishi kerak. Jamiyat Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi bo'yicha mas'ul xodimlarning maxsus o'quv va qayta tayyorlash treninglaridan o'tishini ta'minlanishi kerak.

3.3 Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi uchun mas'ul xodimlar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va ushbu Siyosatning 3.1-bandi talablariga muvofiq Jamiyatning ekologik xizmatining funksiyalarini bajarilishini ta'minlaydilar. Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi uchun mas'ul xodimlar har chorakda Jamiyat rahbariyatiga atrof-muhitni boshqarish bo'yicha o'z vazifalarini bajarish to'g'risida hisobot beradilar.

3.4 Jamiyat rahbariyat buyrug'i bilan ijtimoiy boshqarish funksiyalarini bajarish uchun mas'ul xodimlarni tayinlaydi, jumladan kadrlar boshqarishi, mehnat huquqlarini ta'minlash, mehnat muhofazasi va ishlab chiqarish xavfsizligini ta'minlash, avariya holatlarini boshqarish, yetkazib berish zanjirini tashkil etish va boshqarish, murojaatlarni ko'rib chiqish, manfaatdor tomonlar bilan o'zaro hamkorlik funksiyalarini.

3.5 Ijtimoiy boshqaruv bo'yicha tayinlangan mas'ul xodimlar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va ushbu Siyosatning 3.4-bandi talablariga muvofiq o'z funksiyalarining bajarilishini ta'minlaydi. Ijtimoiy boshqaruv bo'yicha mas'ul xodimlar har chorakda Jamiyat rahbariyatiga ijtimoiy boshqaruv bo'yicha o'z vazifalarini bajarish to'g'risida hisobot beradilar.

3.6 Kompaniya atrof-muhit va ijtimoiy boshqaruv bo'yicha funksiyalarni amalga oshirish uchun barcha zarur moddiy, texnik, tashkiliy, o'quv resurslari bilan ta'minlaydi.

4. MANFAATDOR TOMONLAR BILAN O'ZARO HAMKORLIK

4.1 Jamiyat doimiy asosda manfaatdor tomonlarni, ularning manfaatlari va ehtiyojlarini aniqlaydi va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va korxonaning ichki me'yoriy hujjatlariga muvofiq ravishda belgilangan aloqa kanal orqali hamkorlik uchun ochiqdir. Jamiyatning ichki manfaatdor tomonlariga xodimlar kiradi, Jamiyatning manfaatdor tomonlariga quyidagilar kiradi: korxona joylashgan hududda yashovchi aholi, Jamiyatda ishlashga nomzodlar, yetkazib beruvchi va pudratchilar, Asaka shahar hokimiyati, davlat organlari, jumladan Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi.

4.2 Jamiyat O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi va korxonaning ichki me'yoriy hujjatlariga muvofiq ravishda murojaatlarni qabul qiladi. Jamiyatning rasmiy veb-saytida va Jamiyat binosidagi ma'lumot stendlarida manfaatdor tomonlar tomonidan murojaatlar, shikoyatlar va takliflarni yuborish uchun aloqa telefonlari, elektron pochta va boshqa vositalar ko'rsatilishi kerak. Vakolatli xodimlar O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi va korxonaning ichki me'yoriy hujjatlariga muvofiq ravishda murojaatlarni qabul qilish, ro'yxatga olish va qayta ishlash bo'yicha zarur instruktajni o'tishi kerak. Jamiyat rahbariyati kelgan

murojaatlar haqida o'z vaqtida ma'lumot olishi va zarur bo'lsa, tegishli tuzatish choralarini qo'shgan holda qarorlar qabul qilishi kerak.

4.3 Jamiyat rahbariyati va Jamiyatning tegishli vakolatli xodimlari, jumladan ekolog, xavfsizlik texnikasi va mehnat muhofazasi bo'yicha muxandis va/yoki boshqa xodimlar O'zbekiston Respublikasining ekologik va ijtimoiy qonunchiligi talablariga muvofiq ravishda ishlab chiqarishni modernizatsiyalash va/yoki kengaytirish faoliyatini boshlashdan oldin Jamiyat manfaatdor tomonlarga murojaat qiladigan holatlarni aniqlaydi.

5. MONITORING VA TEKSHIRISH

5.1 Jamiyat O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, ushbu Siyosat va ekologik va ijtimoiy boshqarish tizimi doirasida o'zining ekologik va ijtimoiy majburiyatlarini bajarishni monitoring va tekshirish ishlarini olib boradi. Monitoring va tekshirish ham doimiy asosda, ham davriy ravishda amalga oshiriladi. Davriy tekshirish ichki yoki tashqi audit shaklini olishi mumkin. Bunday monitoring natijalari bo'yicha Kompaniya oliy rahbariyatiga ushbu Siyosatni bajarish va Ekologik va ijtimoiy boshqarish tizimining samarali ishlashi haqida hisobot taqdim etiladi.

5.2. Ushbu Ekologik va ijtimoiy siyosat O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga, Kompaniyaning strategik maqsadlariga, manfaatdor tomonlarning talablari va umidlariga muvofiq davriy qayta ko'rib chiqilishi va o'zgartishlari kerak.